



JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



**FROM THE HISTORY OF THE FIGHT AGAINST HUMAN TRAFFICKING AND
DECENT WORK ISSUES
(ON THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN)**

Laylo Kuryazova

Researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: kuryazovalaylo7@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Human trafficking, forced labor, slavery, deprivation of liberty, removal of human organs and (or) tissues, prostitution.

Received: 01.12.24

Accepted: 03.12.24

Published: 05.12.24

Abstract: Abstract: Based on the extensive literature, the article focuses on human trafficking, threats of force or other forms of coercion, kidnappings, fraud, deception, abuse of power or the use of shocks of the situation, or the use of people to obtain the consent of another person in exchange for payments or interest to use them for hiring, transportation, transfer, concealment or acceptance.

**ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH VA MUNOSIB
MEHNAT MASALALARI TARIXIDAN
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

Laylo Quryazova

Tadqiqotchi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: kuryazovalaylo7@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Odam savdosi, majburiy mehnat, qullik, erksizlik, inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish, foxishalik.

Annotatsiya: Maqolada keng adabiyotlar asosida odam savdosiga, ya‘ni kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste‘mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish yo‘li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni

**ИЗ ИСТОРИИ БОРЬБЫ С ТОРГОВЛЕЙ ЛЮДЬМИ И ВОПРОСОВ
ДОСТОЙНОГО ТРУДА
(НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН)**

Лайло Курязова

Исследователь

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: kuryazovalaylo7@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Торговля людьми, принудительный труд, рабство, лишение свободы, изъятие органов и (или) тканей человека, проституция.

Аннотация: На основе обширной литературы в статье основное внимание уделяется торговле людьми, угрозам применения силы или другим формам принуждения, похищениям, мошенничеству, обману, злоупотреблению властью или использованию потрясений ситуации, или использованию людей для получения согласия другого лица в обмен для платежей или процентов, чтобы использовать их для найма, транспортировки, передачи, сокрытия или принятия.

Odam savdosi – ko‘p qirrali xavf va inson huquqlariga qarshi jiddiy jinoyatdir. U odamlardan ularning huquqlari va erkinligini tortib oladi, shaxsiy daxlsizligiga hamda ularning sog‘ligiga bevosita xavf soladi hamda butun jahonda uyushgan jinoyatchilikning o‘shiga sabab bo‘ladi. Odam savdosidan jabrlanganlarning huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish odam savdosiga qarshi kurash tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. Shu bois, O‘zbekistonda odam savdosiga qarshi kurash, uning oldini olish, sabablarini aniqlash, unga barham berish, uning oqibatlarini minimal darajaga keltirish bilan bir qatorda odam savdosidan jabrlanganlarga huquqiy, psixologik va tibbiy yordam berish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada respublikamizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasida xam.

2016 yil 11 yanvarda Nukus tibbiyot va Amudaryo maishiy kollejida, 15 yanvar kuni Nukus politexnika, Nukus sanoat va xizmat ko‘rsatish kasb – hunar kollejida, 16 yanvar Akademik litsey, Amudaryo qishloq xo‘jaligi kasb – hunar kollejida, Qo‘ng‘irot tuman hlokimligida, 18 yanvar Shumanay tuma-nidagi 5-son ixtisoslashtirilgan maktabda, 23 yanvar kuni Qo‘ng‘irot tibbiyot kollejida, 26 yanvar kuni Shumanay tumanidagi 24-sonli umumta’lim maktabida, 10 fevral kuni Amudaryo tumanidagi 40, 30-sonli o‘rta maktabda, 26 yanvar kuni Shumanay tumanidagi 24-sonli umumta’lim maktabida, 18 fevral kuni Amudaryo agrobiznes kasb-hunar kollejida, 2 mart kuni Amudaryo melioratsiya va suv xo‘jaligi kasb-hunar kollejida va Qoraqalpog‘iston Respublikasining

barcha ta'lim muassasalarida "Sog'lom ona va bola yili" munosabati bilan "Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli bo'ladi, jamiyat mastahkam bo'ladi" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Shuningdek, Odam savdosiga qarshi kurashi samaradorligini oshirishga qaratilgan 2015-2016 mo'ljallangan chora-tadbirlar yillarga rejasining ijrosini ta'minlash maqsadida Odam savdosiga qarshi kurash samaradorligini oshirishga qaratilgan 2015-2016 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi"ning ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. Uzoq muddat chet davlatlarda bo'lib qaytgan, deportatsiya bo'lgan, odam savdosidan jabrlangan ayollarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi va tibbiy ko'rikdan o'tkazilishida davlat tashkilotlariga yakindan ko'mak berish maqsadida bo'sh ish o'rinlar yarmarkalariga keng jalb qilish, rehabilitatsiya markaziga yo'naltirilishini ta'minlash, TIOBIY ko'rikdan o'tkazilishini nazorat qilish, yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazish, joylardagi "Ayollar va oilalar-ni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" markazlari yordamida psixologik, tibbiy, xuquqiy, ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi vazifalar amalga oshirildi.

Masalan, Qorakalpog'iston Respublikasida 2016 yil 1-choragida deportatsiya qilingan 4 nafar xotin-qizlar, xususan, Beruniy tumanidan 2 nafar, Nukus shaxri va Shumanay tumanidan 1 nafarni tashkil etib, shundan 3 nafarining bandligi ta'minlangan. Bu xotin-qizlarning barchasi tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ular bilan yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazildi.

"Sog'lom ona va bola" yil Davlat dasturiga muvofiq 2016 yilning 6 fevral kuni Shuman tumanidagi "Мамъу" OFIda mahallalar yashovchi uy bekalari keksa ayol salomatligini mustahkamlash maqsadida ayollar orasida turmush tarzini shakllantirish, ayollar sportining ommaviyligi oshirish, korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilayotgan ayollar o'rtasida sport ommalashtirish maqsadi musobaqa o'tkazildi. Shu yili 2 mart kuni Kungir neft va gaz sanoati kasb-hunar kolleji xotin-qizlar o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha sport musobaqasi tashkil etildi. 24 mart kuni Qung'iro't tumanidagi 36 son umumta'lim maktabida qizlar o'rtasi "Jismoniy barkamollik go'zalik ramzidir" shiori ostida badiiy gimnasti bo'yicha sport musobakasi tashkil etildi.

Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyasi tomonidan 2016 yil 8 fevral kuni ijroga yo'naltirilgan "Odam savdosi – davr muammosi" nomli targ'ibot loyihasi yuzasidan ishlab chiqilgan chora- tadbirlar rejasi Xotin-qizlar qo'mitasiga, viloyatlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasiga ijro uchun yuborildi. Unda xorijda ishlashning qonuniy asoslari hamda odam savdosiga qarshi kurashning maxmun-mohiyatini yoshlarga tushuntirish ishlarini olib borish vazifalari topshirildi.

Bu chora-tadbirlar rejasining 9-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining hududiy bo'limlari tomonidan mahallalarda aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va uyushmagan yoshlar o'rtasida uzoq muddatga xorijiy davlatlarga chiqib ketishning salbiy oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan profilaktika tadbirlari manizilli rejalar asosida tio'imli ravishda tashkil etildi, bu borada bir qator davra suhbatlari, seminar trninglar, konferensiyalar o'tkazildi.

Shu maqsadda Qoraqalpog‘iston Respublikasining komissiya tarkibidagi barcha vazirliklar, idoralar, shahar va tumanlar xududiy idoralari komissiyalarida tashkiliy tadbirlar tizimli yo‘lga qo‘yildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xotin –qizlar qo‘mitasi tomonidan hududdagi mahallalarda, umumta‘lim maktablari, kasb – hunar kollejlari va akademik litseylarda jami 1.926 ta mavzuga oid tadbirlar o‘tkazildi. Ma‘ruza va davra suhbatlari, og‘zaki tadbirlar 1 795 ta, seminarlar – 119 ta o‘tkazildi. OAV orqali jami 131 marotaba, shundan mahalliy gazetalarda 46 ta, televideniya 44 ta, radioda 38 ta, internetda 3 chiqishlar qilindi.

Tadbirlarda jami 52 482 nafar aholi ishtirok etdi. Ularning 30 327 nafarini ta‘lim muassasalarini o‘quvchilari, 14 230 nafarini mahalla faollari, 4 946 nafarini mehnat jamoalari, 2 979 nafarini boshqa jamoatchilik vakllari tashkil etdi. Ishchi guruh a‘zolari tomonidan “Qulikka rozi bo‘lmang”, “Ogoh bo‘ling, yoshlar”, “Befarqlik yomon illat, keltirar u zalolat” kabi mavzularda 136 ta banner, 5 259 ta buklet va tarqatma materiallar, plakatlar tarqatildi.

Xulosa o‘rnida, shuni ta‘kidlash lozimki, odam savdosi jinoyatchiligidan jabrlangan shaxslarga yordam ko‘rsatish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va uni yanada takomillashtirish maqsadida Respublikamizning Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan odam savdosi jinoyatchiligidan jabr ko‘rganlarga huquqiy va boshqa turdagi yordam ko‘rsatish rehabilitatsiya markazi filiallarini barcha viloyatlar, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham ochish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari to‘plami, 2008, 28-son, 268-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam berish va ularni himoya qilish bo‘yicha Respublika rehabilitatsiya markazini tashkil etish to‘g‘risida” // Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: “Yurist media markazi”, 2009.
4. O‘z MA M- 170, ro‘yhat – 1, yig‘ma jild – 221, 84 - 85 varaqlar.
5. O‘z MA M- 170, ro‘yhat – 1, yig‘ma jild – 218, - 151 varaq.
6. Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha halqaro shartnomalar va O‘zbekiston milliy qonunchiligi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2013. B-16.